
“Tog‘liq ” MFYda uy xo‘jaliklari kuzatuvini o‘tkazildi

Joriy yilning 24-oktabr kuni Farg‘ona viloyat statistika boshqarmasining “Turmush darajasi statistikasi va uy xo‘jaliklari kuzatuvlari” bo‘limi mutaxassisi O. Holbekov tomonidan uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuvga tushgan Buvayda tumanidagi, “Tog‘liq” MFYda istiqomat qiluvchi M. Jo‘rayevlar xonadonida bo‘lib, mazkur kuzatuvning maqsadi haqida qisqacha tushuncha berdi. Xususan, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning aholi turmush darajasiga ta‘sirini o‘rganish va aholi farovonligini yanada yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni va manzilliy dasturlarni ishlab chiqish uchun shakllantirilishi haqida ma‘lumot berildi. Shundan so‘ng, fuqarodan olingan ma‘lumotlar joyida shaffof va haqqoniy tarzda planshet qurilmasiga kiritildi.

2023-11-01 14:46:55